

XVI-XIX ASRDA BUXORO XONLIGI VA ROSSIYA DAVLATI ALOQALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Achilov Kattabek Rahmankulovich
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *ushbu maqolada Buxoro xonligining Rossiya imperiyasi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohada olib borgan diplomatik munosabatlarining o'ziga xos jihatlari rus va mahalliy manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Buxoro xonligi, Rossiya, Sibir, imtiyoz, boj, Ural, Volga, Astraxan, sartlar, kareta, desyatina, Florio Beneveni, Ivan Xaxlov, Abulxayrxon, diplomatiya.*

O'zbekiston Markaziy Osiyo xalqlari hayotida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi dunyo sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. Davlatimiz hududida mavjud bo'lgan qadimgi mamlakatlar o'zining boy o'tmishi va uning ko'psonli tarixiy obidalari, moddiy va manaviy madaniyati azaldan sharqshunos olimlarni o'ziga jalb etib kelgan. Bu o'rinda Buxoro xonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligining qo'shni davlatlar, xorijiy mamlakatlar, jumladan Rossiya bilan bevosita hamda bilvosita amalga oshirgan iqtisodiy aloqalari, tashqi savdo va elchilik munosabatlarini o'rganish barobarida ushbu davlatlar o'rtasida bo'lib o'tgan diplomatik aloqalariga nazar tashlaymiz. Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi diplomatik aloqalarini tadqiq etish orqali Buxoro xonligining XVI-XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bozorlar, karvonsaroylar faoliyati, savdo yo'llari hamda eksport va import tovarlar turlarini o'rganish va aniqlash, Buxoro xonligining qo'shni hamda xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining ayrim xususiyatlarini tahlil etish, xonlik bilan savdo aloqalarida vositachi bo'lgan mamlakatlar savdogarlari uchun yaratilgan imtiyozlar va ularidan olingan boj tizimini o'rganish, Mustaqil O'zbekistonning Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi ildizlari ko'p asrlik tarixga ega ekanligini asoslab berishishimiz mumkin.

Tarixdan bizga ma'lumki u yoki bu davlat har bir vaqtda rivojlanish davrida tashqi diplomatik aloqalar va savdo aloqalarisiz rivojlnana olmagan. Bir so'z bilan aytganda har qanday davlat ham o'z qobig'iga o'ralib taraqqiy etmagan.

Buxoro xonligida Shayboniyalar va Ashtarkoniylar sulola hukumdorlari tomonidan bir qancha savdo va diplomatik munosabatlari amalga oshirilgan. Movoraunnahrda Shayboniyalar hokimiyat tepasiga kelgan yillarda va ular hukumronlik yillarda qo'shni mamlakatlar bilan elchilik, savdo tijorat ishlarini olib borganlar. Xonlikning tashqi savdoni tashkil etishda elchilarining xizmati katta bo'lgan, chunki diplomatik aloqalarning

yaqinligi savdo tijoratining rivojiga ijobjiy ta'sir o'tkazgan.

Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlnana bordi. Buxoro xonligi oliy hukumdori Abdullaxon II Rossiya podshosi Ivan Groznii bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yo'lga quydi.

Abdullaxon II tomonidan 1557-1558-yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib Ivan Groznii huzurida bo'lganlar. Ular o'z xonlari nomidan

savdogarlarning Volga boylab erkin o‘tishlariga ijozat so‘raydilar. Qaytib kelgan elchilar Moskvadan juda ko‘p o‘q-dori, ov qushlari va matolar bilan qaytganlar.

Imomqulixon vaqtida Buxoro xonligidan rus davlatiga to‘qqiz marotaba elchilar yuborilgan. Shularning yettitasi bevosita, Astraxan, qolgan ikkitasi esa Sibir orqali yuborilgan.

1613-yili Imomqulixon rus davlatiga Navruzxo‘ja boshchiligidan elchilar yuboradi. Bu elchi 300 kishidan iborat savdo karvonlari bilan Qozon, Samara va boshqa joylarda mahalliy hokimiyat tomonidan qobul qilinadi. Ular shuningdek sovut, shunqor, moyna va “xon extiyoji” uchun zarur bo‘lgan rus tovor maxsulotlarini sotib olish va xon mollari rus yerlarida bojsiz sotishga ijozat berilishiga rus podshosidan so‘ragan va bunga javoban ma’lum miqdorda imtiyozlarga ega bo‘lgan.

Buxorodan, 1622-yilda Chobak Valikov, 1633-yilda Hoji Otaqul, 1640-yilda Xazziyan (Kozziyan), 1642-yilda Xo‘ja Ibrohim, 1670-yilda Mulla Farrux kabi elchilar Rossiya mamlakatiga yuboriladi. Bu kabi elchilik munosabatlarning yo‘lga quyilishi Buxoro xonligi va Rossiya savdosini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishida muhim rol oynagan.

1658-yilda Irkutskka 15 ga yaqin buxoroliklar oilalari 130 ga yaqin tuya bilan tashrif

buyuradi. 1686-yilda bu hududga ikkinchi karvon tashrif buyurdi. Uning tarkibida 11 savdogar oilasi, 172 ta tuya va 2000 rublga yaqin xomashyo mavjud edi.

1804 yilda Amir Haydarning elchisi Abdulkarim Rossiyaga tashrif buyurdi. 1806-yilda chop etilgan rus jurnallaridan birida Rossiyada yashayotgan o‘zbek shajarasi o‘zining ishbilarmonligi, so‘zamoni va o‘z ishini yaxshi bilishi bilan ajralib turishi aytib o‘tilgan edi.

1857-, 1869- va 1874-yillarda Nasrullohonning elchilari bilan birga Ahmad Donish Rossiya safarida bo‘ldi. U Rossiyaga qilgan safaridan ilhomlanib “Buxorodan Peterburgga sayohat” asarini yozgan.

Rossiyadagi o‘zbek shajarasi orasida “sibirlik buxoroliklar” muhim o‘rin tutadi. Ular G‘arbiy Sibir hududiga XV-XVII asrlarga qadar kelib joylashganlar. Buxoroliklar tarkibiga o‘zbeklar, uyg‘urlar, tojiklar, qozoqlar va qoraqolpoqlar kirardi. Ularning ko‘pchiligi bir nom bilan yuritilsada Markaziy Osiyoning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xorazm, Qo‘qon va boshqa shaharlaridan kelib joylashgandi.

Aholi qatlami ham farqlanardi. Ular tarkibida tadbirkorlar, savdogarlar, din vakillari, dehqonlar, mayda hunarmandlar va ishchilarni tashkil etardi. Buxoroliklar ko‘pchilikni tashkil etgani bois buxoro tili jahjasining tatarcha ko‘rinishida so‘zlashardi. Sibir hududiga kelib joylashgan buxoroliklar hukumat tomonidan chet ellik maqomi ostida qabul qilingan. Shu sababdan ham ular hukumat tomonidan taqdim etilgan imtiyozlardan foydalangan holda savdo aloqalarini olib borgan. Hukmdor tomonidan chiqarilgan qarorlarni so‘zsiz bajarib kelgan. Sibirga ko‘chirish siyosati XIV asrdayoq amalga oshirildi. Bu hududlarda vujudga kelgan Bahovuddin Naqshband (1318-1389) tariqati islomni yoyish maqsadida kirib kelgan edi. bir qancha vaqt davomida buxoroliklar o‘z hududiy birliklariga ega bo‘ldilar. Ular o‘zlarini “buxoroliklar”, “sartlar”, “o‘zbeklar” deb atashardi. Ularning asosiy yashash hududi Tyumensk, Omsk, Tomsk viloyatlari bo‘ldi. Ular bu hududlarda buxorocha yashash joylarini bunyod etishdi.

Buxoro elchisini Rossiya poytaxtida kutib olish va qabul marosimlari ham o‘ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Buxoro elchisi Peterburgga oz masofa qolganda tashrif bo‘yicha ruxsat berilishini kutib to‘xtashi lozim edi. Belgilangan kunda elchi va uning hamrohlari uchun uchta kareta yuborilgan. Rossiya devonxonasi vakili elchi va uning hamrohlarini sog‘-salomat etib kelganlari bilan qutlagandan keyin o‘zini senatorlar tomonidan kutib olishga yuborilganini hamda mehmonlarni ajratilgan joyga qadar kuzatib qo‘yishini bildirgan. Qabul qilingan tartibga ko‘ra, kelgan elchi va uning hamrohlari Rossiya devonxonasi vakilini tik turgan holda eshitishlari, unga minnatdorchilik bildirishlari, shoh va vazirlar salomatligini so‘rashlari kerak edi. Bir ozdan keyin elchi Rossiya devonxonasi vakili bilan birinchi karetaga, Buxoro savdogari va rus amaldori ikkinchi karetaga, oxun va tilmoch uchinchi karetaga o‘tirishgan. Elchilik sekinlik bilan yura boshlagan, chunki birinchi kareta yonida tilmoch ham yurib, elchi Rossiya devonxonasi vakili bilan suhbatlashib ketgan. Elchini poytaxtga kirib kelishi bilan uni yo‘Ining ikki tomonida juda ko‘p miqdordagi olamon, piyoda askarlar polka to‘plar yonida saf tortib kutib olganlar.

Sibirga ko‘chirilgan buxoroliklar o‘zлari uchun yangi bo‘lgan mahalliy sharoitlarga ko‘nikish hamda savdodan tashqari yer bilan shug‘ullanishni yo‘lga qo‘yinshni amalga oshirishardi. Yirik yer egaligining ko‘rinishlari asosan Tyumenda kuzatildi. 1701-yilda 126 desyatina yerning narxi qoramolga hamda 77 desyatina bug‘doy narxiga teng edi. Tarada esa farqlanib 50 desyatina lalmikor va 75 desyatina sholikor yerlar edi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligining Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalari jahon savdo yo‘nalishidagi o‘zgarishlar natijasi bo‘lib, Yevroosiyo mintaqasidagi siyosiy munosabatlar tizimiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Rossiya bilan diplomatik munosabatlar turli davrlarda siyosiy ahamiyatdan ko‘ra iqtisodiy manfaatlar ustunligi bilan ajralib turadi. Bu ustunlik Rossiyaning O‘zbekiston bilan hozirgi munosabatlar tizimida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Rossiya bilan diplomatik aloqalar tufayli O‘rta Osiyo xonliklarida diplomatik qoidalar tizimi, yangilangan munosabatlar majmui shakllandiki, unda jahon tajribasi o‘zbek davlatchiligiga ham kirib kelgan.